

MAQOLLAR XALQ PAREMALARINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Karimova Gulsanam Bahodirovna

Buxoro shahar 19-IDUM o‘zbek tili o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14703634>

Annotatsiya. Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan maqollarning ta’limiy xususiyatlari, mакtab o‘quvchilarini ma’naviy yetuk, barkamol kamol topishida xalq paremalarining o‘rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari bayon etilib, maqollar har bir millatning ma’naviy, tarixiy, millliy o‘zligini namoyon etuvchi birlik sifatida tahlillar amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: maqollar, xalq paremalari, paremiologik birliklar, aforizmlar, matallar, naqlar, zarbulmasal.

PROVERBS AS A COMPONENT OF FOLK PROVERBS

Abstract. The article discusses the educational properties of proverbs, which are considered examples of folk oral creativity, the role of folk proverbs in the spiritual and harmonious development of schoolchildren. The linguistic and cultural characteristics of proverbs are also described, and proverbs are analyzed as a unit that reflects the spiritual, historical, and national identity of each nation.

Keywords: proverbs, folk proverbs, paremiological units, aphorisms, proverbs, sayings, proverbs.

ПОСЛОВИЦЫ КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ НАРОДНОГО ПЕСНОПОВЕДАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются воспитательные свойства пословиц, которые являются образцами народного устного творчества, а также роль народных пословиц в духовном и гармоничном развитии школьников. Описываются также лингвистические и культурные особенности пословиц, пословицы анализируются как единое целое, отражающее духовную, историческую и национальную идентичность каждого народа.

Ключевые слова: пословицы, народные паремии, паремиологические единицы, афоризмы, поговорки, пословицы, идиомы.

Xalqimiz boy ma’naviy me’rosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan.

O‘zbek xalq maqollari, matallari va iboralarini maktab darsliklarida o‘rganish, ularni chuqur tahlil qilish, o‘quvchiga asl mazmun-mohiyatini yetkazib berish bugungi kunda ilm ahlining oldida turgan muhim masalalardan biridir.

Maqol xalq og‘zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, u xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishalri, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Shu sababli ham maqollar o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarining uzoq yillar mobaynidagi hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovdan o‘tadi. Rus folklorshunosi V.P.Anikin ta’biri bilan aytganda, “Xalq tajribasida bo‘lmagan narsa, maqolda ham bo‘lmaydi”. Xalq tajribasi esa asta-sekinlik bilan asrlar mobaynida boyib boradi. Maqollar fikrni lo‘nda aniq va obrazli bayon etishda nutqimiz uchun zaruriy vosita hisoblanadi.

Shuning uchun ham V. G. Belinskiy xalq maqol va matallarini “poeziyaning mohiyati” deb hisoblagan edi.

Tarixiy manbalarda ham, xalq orasida ham xalqimizning aforistik ijodi turli-tuman atamalar bilan nomlanib keladi. Maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, hikmatli so‘z, ibora, ta’bir, aforizm, otalar so‘zi, ota-bobolardan qolgan so‘z, abushqa so‘zi, mashoyixlar so‘zi, donolar so‘zi, donishmandlar so‘zi, hikmatlar so‘zi, oqinlar so‘zi, qadimgilar so‘zi, burungilar so‘zi, ilgari o‘tgan yaxshilar so‘zi, va boshqalar.

O‘zbeklarda maqol, tojiklarda zarbulmasal, arablarda (jonli so‘zlashuvda) naql, turklarda ata so‘zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha “qavlun – gapirmoq, aytmoq” so‘zidan olingan. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi.

Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda “qavlun” – gap, so‘z ma’nosini ifodalasa, tojiklarning “zarbulmasal” atamalarida misol keltirish, ruslar “poslovitsa” sida so‘zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi “ata so‘zi” da esa ajodollar so‘zini eslash ma’nosini yetakchi. Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan. Alisher Navoiyda esa maqoldan misol keltirilib “masal” atamasidan foydalanilgan. Xullas, maqol atamasi umumiylar mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Maqollar, o‘zbek xalqining o‘ziga xos qobiliyatlarini, tafakkurini, qadriyatlarini, adabiyotini va madaniyatini ifodalayadigan qismlardir.

Ular o‘zbek xalqining g‘oyalarini, fikrlashini, tabiatni, odob-axloq qoidalarni, ta’lim-tarbiya, adabiyot va san’atning o‘ziga xosliklarini ifodalaydi.

Suvning oqishiga qara,

Xalqning xohishiga qara. Ushbu o‘zbek milliy mental xususiyatlari aks etgan maqolda, xalqning buyuk kuch ekanligiga ishora qilibgina qolmasdan, qadimdan turkiy xalqlarda muqaddas, tuproq, suv, havo, olov kabi unsurlarni muqaddas bilganini ham ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham xalqning kuch-qudrat ramzi muqaddas suvning oqishi bilan qiyos qilingan. Bu o‘zbek maqollarining o‘ziga xos lingvomadaniy mazmun tashishidan ishora.

Otang o‘tirgan uyning tomiga chiqma! Xalq og‘zaki ijod namunasi hisoblangan ushbu maqolda o‘zbek xalqida ota-onaning hurmati qanchalar yuqori o‘rinda turishini ko‘rishimiz mumkin. Otaning qadri baland ekanligini tashuvchi bu maqolda o‘zbeklarning muqaddas sanalgan ham ota, ham uy leksemalari milliy-mental xususiyatlarni ifodalagan lingvomadiy birlikdir. “Ota uyi” bilan bog‘liq ko‘plab paremalar adabiyotimizda aks etadi. Ota uyning ulug‘ligi, azizligi haqida fikr yuritar ekanmiz, uni ona Vatanga ishora qilamiz. Vatan ostonadan boshlanadi, degan gap ildizi ham shunga borib taqalsa, ajab emas.

Maqollar o‘zbek xalqining ustozlar tomonidan o‘rgatilgan va o‘qitilgan adabiy uslublaridir.

Bu uslublar o‘zbek xalqining tarixiy, etnik, din, adabiyot va madaniyat asoslariga bog‘liq.

Maqollar o‘zbek xalqining o‘ziga xos miliy qadriyatlarini ifodalayadi va milliy ziynatning tildagi ko‘rinishlardan biri hisoblanadi. Mavzular ko‘lami turli mazmundagi maqollarda xalq madaniyati, tarixiy qadriyatları namoyon bo‘ladi. quyida biz salomatlik semasiga xos xalq paremalarini tahlil qildik:

“Davo”, “Salomatlik” semalarini ifodalovchi paremiologik birliklar:

Vahima qilish yarim kasallik,

Xotirjamlik yarim boylik,

Sabr esa shifoning boshlanishidir.

Xalq donishmandligi aks etgan ushbu maqolda davo sirlari bayon etilishi bilan birga, hayot haqiqatlari ham aks etgan, Ibn Sino ham “Kasalliklarning eng og`iri – vahima va qo`rquv bo`lsa, eng yaxshi davo - xotirjamlikdir” deb aytgan.

Kasalni tabib emas, habib tuzatar.

Habib-sevikli do`st, o`rtoq demakdir.

Haqiqatdan ham haqiqiy do`stning sizga bo`lgan mehri, uning daldasi shifokorlarning ming urungan mashaqqatlari bilan tengdir, ushbu maqolda bemorni nafaqat tabib, balki uni yelkadosh do`stining mehri ham yostiqdan bosh ko`tarishiga yordam berishi bayon etilgan.

Pokliging-sog`lig`ing.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan ushbu salomatlik bilan bog`liq maqolda olam-olam ma`no bor. Toza tana, toza iymon, toza fikr eng katta salomatlikdir, bu muqaddas kitobimiz hisoblangan Qur’oni Karimda ham bayon etilgan va hadislarda ham inson salomatligining eng boshida tozalik, poklik turishi bayon etilgan. Bu maqolga mos keladigan quyidagi maqol ham ham xalqimizning ijod namunasidir:

Uyi tozaga gard yuqmas,

Gard yuqsa ham, dard yuqmas.

Quturganning kuni - qirq.

Xalqimiz orasida “qirq” soni “sehrli son” ekanligi barchamizga ayon, ya’ni shu qirq soni bilan bog`liq ko`plab maqollar (Qing`ir ishning qiyig`i qirq kunda ham chiqadi. Qing`ir odam bir tomon, qirq odam -bir...), magiyalar (qirq kecha-yu qirq kunduz...), urch-odatlarimiz, marosimlarimiz (chilla) va albatta ayrim kasalliklarning davosi ham bordir, shular jumlasidan qutur kasalligi.

Kasal bitta - davosi mingta.

Ushbu maqolda bir kasallikning turli davolari borligi aytilgan. Abu Bakr Roziy ham bir kasallikning davosi mijozga qarab o`zgarib boradi, kimningdir mijoz qabul qiladigan davo boshqa mijozga teskari ta’sir qilishi mumkin, deydi.

Boyliking boshi — sog`liq.

Hozirgi kunga qadar dolzarb hisoblangan ushbu maqolda insonning eng katta boyligi bu uning sog`ligi ekanligi aytilgan. Shu o`rinda buyuk Iskandar Zulqarnaynning vasiyatini eslaylik¹...

Isitmani yashirsang,

O`lim oshkor qilar.

¹ ...mening tobutimni yurting eng mashhur tabiblari ko’tarib borishsin; qabrimgacha bo’lgan yo’lgan bor boyliklarim sochib borilsin; qo’llarimni qabrdan chiqarib qo’yishsin. Toki odamlar bilishsinkim, ajal kelganda mashhur tabiblar ham yordam berolmasligini, to’plagan oltinlarim shifo bo’lmashagini va albbata, shuncha boylik yig’ib qabrga ochiq qo’l bilan ketayotganligimni.

Yashirin ishning isi albatta oshkor bo`ladi, ya`ni kasallikni yashirsang ham u o`zini namoyon etadi. Bu maqolning invariant shakli ham mavjud: *Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor etadi.*

Kalla osgan kuni itdan, Kir yuvgan kuni bitdan qutulasan.

Xalq hayotiy tajribasi, momolarimiz mehnat faoliyati aks etgan ushbu parema, xalqonaligi bilan ajralib turadi. Sharq xalqlariga xos bo`lgan, momolarimiz tayyorlagan milliy ovqatlarimizdan biri kalla, tuyiq qaynatish ko`plab kasalliklar uchun shifodir. Kalla qozonda osilgan kunda nafaqat oila a`zolar balki, hovlidagi it ham to`yadi, ya`ni ko`p suyakka ega bo`lgan it “irrilamay” qo`yadi; pokliging -sog`liging deyilganidek, kir yuvilgan kunda ko`plab ko`rpato`shaklar yuviladi va ular ko`plab chang, dog`lar bilan birga har xil hasharotlardan ham tozalanadi.

Shuning uchun ham kir yuvilganda bitdan qutulasan deyilgan.

Kasal kasal emas, kasalni boqqan kasal.

Xalqimiz orasida keng tarqalgan ushbu paremada hayot haqiqati aks etgan. Kasal kishining oldidagi yaqini unga qarab, uning azoblanayotganini ko`rib, unga qandaydir yordam berolmayotganidan ham ruhiy, ham jismoniy qiynaladi, shuning uchun xalqimiz: Eng qiyini - kasalga emas, kasal boqqanga deb aytishadi.

Badiiy asarlarda ham maqollarni ko`p uchratamiz. Yozma adabiyotda maqollardan foydalanishning uch ko`rinishi mavjud:

1. Xalq maqoli aynan keltiriladi.

Alisher Navoiydan Muqimiygacha, Cho`lpordan O`tkir Hoshimovgacha o`z asarlartida fikrni ixcham va tushunarli ifodalash maqsadida maqol matnidan aynan foydalanganlar.

“Masaldurkim, uyqu o’limdir” (Alisher Navoiy)

“Otning o’limi, itning bayrami” (Abdulla Qahhor)

2. Maqoldagi ayrim so’zlar o’zgaradi, ma’no saqlanadi.

“Otalarda bir so’z bor, eshit og’ajon,

Bosgan izidan qaytmas, o’lsa ham arslon” (Hamza).

Bu misralarda shoir “Arslon izidan qaytmas, yigit so’zidan” maqolidan ijodiy foydalangan.

3. Shoir biror fikrni maqoldagi ma’nodan foydalanib ifodalaydi. Bir qarashda bu fikr mustaqildek ko’rinadi. Fikr yuritsak, adibning xalq maqollaridagi ma’noni o’ziga xos boshqa so’zlar bilan ifodalaganini anglaymiz. Masalan, Alisher Navoiy g’azallaridan birida “O’lturur mahramni sulton ganji pinhon aylagach”, - degan misra bor.

Unda xo'jayin, sulton, hokim xazinasini yashirishni mahramiga, ya'ni eng yaqin xizmatlarini bajaruvchi xizmatkoriga buyurishi, xazina biror yerga ko'milganidan so'ng ortiqcha guvohdan qutilish uchun uni o'ldirish aytilgan.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunasi sifatida darsliklarimizda keltirilib o'quvchi yoshlarning ma'naviy yetuk kamol topishi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolda ifodalangan fikrlar, qadriyatlar maqol sodda va tushunarli tili orqali yoshlarning qalbigacha kirib boradi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyevning o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o`ttiz yilligiga bag`ishlangan marosimdagi nutqi//<https://xs.uz/uz/post/prezidentshavkat-mirziyoevning-ozbek-tiliga-davlat-tili-maqomi-berilganining-ottizjilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdag-nutqi>
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. <https://lex.uz/docs/-4561730>
3. Islomova Sh. She'riy tibbiy asarlarning lisoniy xususiyatlari / Qo'qon DPI ilmiy xabarlari/ 2024-y. 4-son.
4. O`zbek folklori ocherklari. I tom 1988. 85-86 betlar.
5. Abu Ali ibn Sino. Salomatlik sirlari. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi,2000. Elektron kitob.
6. Islomova Sh. Tibbiyot va she'riyat mushtarakligi/ Til, ta'lim, tarjima xalqaro jurnali/ 2022,6-son.